

**NAVOIY VA BUXORODA SKRIPKA MADANIYATI : JAHON
ANDOZALARIGA ERISHISH YO‘LIDA MAHALLIY USTALAR VA
IJROCHILARINING ROLI**

Do‘smatova Setora Nurmat qizi

Navoiy davlat universiteti

“Musika ta’limi” yo‘nalishi II bosqich talabasi

Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi

Ilmiy rahbar: Navoiy davlat universiteti

“Musika ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqola Navoiy va Buxoroda skripka madaniyatining rivojlanishi ,mahalliy ustalar va ijrochilarning jahon andozalariga erishishdagi rolini tahlil qiladi. Skripka yasalishi va ijrochilik maktablarining xalqaro standartlarga moslashuvi ,ularning mintaqaviy va global musiqiy merosga qo‘shgan hissasini yoritadi.

Kerakli so‘zlar: Navoiy va Buxoro ,musika,skripka,tarix, klassika, zamonaviy texnologiya, mahalliy ustalar,chet el, tovush, yog‘och, zamon, ta’lim muassasalari, Stradivari .

Ma’lumki skripka (slavyancha skri-g‘ichirlamoq)torli kamonli musiqa cholg‘u asbobi. Skripkasimon cholg‘u asboblari orasida (S,alt,violenchel,kontrabas) yetakchi o‘rinlarda turadi. Diapazoni 4 oktavadan oshiq.Skripkaning klassik shakli XV-XVI asrlarda Italiya va Fransiyada vujudga kelgan.XVII-XVIII asrlarda Shimoliy Italiya,ayniqsa,Kremona ustalari Andrea Amati va uning nevarasi Nicolo Amati, Giuseppe Guarneri del Gesu va Antonio Stradivari va boshqa skripkaning namunalarini yaratishgan.Bu sohada ayniqsa,Nicolo Paganini va Pablo Martin Meliton de Sarasate Navascues va boshqalarning xizmati katta bo‘ldi .

Skripka O‘zbekistonga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kirib kelgan.Bu davrda Markaziy Osiyo hududlari Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan bo‘lib,skripka rus madaniyati va Yevropa musiqa ta’siri orqali ommalasha boshlagan.O‘zbekistonda skripka dastlab asosan Yevropa musiqa asarlarini ijro etish uchun ishlatilgan ammo keyinchalik milliy musiqaga moslashtirilgan.XX asrning birinchi yarmida skripka o‘zbek xalq musiqasida ,ayniqsa milliy cholg‘ular bilan birgalikda ishlatila boshlandi.

Navoiy va Buxoro hududlariga asosan skripka XX asr boshlarida kirib kelgan.Bu davrda hududlarda o‘zaro madaniy aloqalar kuchayib ,Yevropa cholg‘u asboblari jumladan,skripka keng tarqala boshlandi.Ayniqsa,Buxoro amrligi davrida milliy va xalq cholg‘u asboblari bilan bir qatorda ,skripka kabi yangi cholg‘ular ham o‘z o‘rnini topa Buxoroda skripka ko‘pincha mahalliy sozanda va bastakorlar tomonidan milliy kuylarni ijro etishda ishlatildi.Navoiyda esa bu asbob dastlab o‘qituvchilar va musiqiy bilimga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan tanishtirilgan bo‘lsa,keyinchalik yosh avlod orasida keng tarqaldi.XX asr o‘rtalariga kelib esa ,skripka o‘quv dasturlariga kiritilib musiqiy bilim yurtlarida o‘qitila

boshlandi. Shu sababdan, Navoiy va Buxoro hududlari skripka ijrochiligida ham o‘z an‘analarini shakllantira boshladi.

Antonio Stradivari va O‘zbekistondagi skripka yasovchi ustalarning orasidagi asosiy farqlarni tarixiy, texnik va madaniy jihatdan tahlil qilish mumkin:

Antonio Stradivari Italiyada yashagan (1644-1737) va dunyo bo‘yicha skripka yasash bo‘yicha san‘atning eng yuqori cho‘qqisiga yetgan ustalardan hisoblanadi. Uning ishlari klassik musiqaning oltin davri bilan bog‘liq. Stradivari skripkalari bugungi kunda eng qimmat va bebaho cholg‘ulardan hisoblanadi.

O‘zbekistonda skripka yasash an‘anasi nisbatan yangi va chet eldan kirib kelgan san‘at turi hisoblanadi. Ko‘proq mahalliy turdagi cholg‘ular (rubob, dutor, tanbur) yasash an‘analari ko‘proq rivojlangan. Skripka yasash esa bu an‘analarning texnik va materiallarni o‘zlashtirilgan holda rivojlanmoqda.

Stradivari o‘z skripkalarini maxsus tanlangan tog‘ archasi va qattiq yaproq yog‘ochlardan (maple) yasagan. Bu yog‘ochlarning tuzilishi va sharoitini ovozini belgilangan.

O‘zbek ustalari ko‘pincha mahalliy yog‘och turlarini, masalan, tol, yong‘oq yoki archa yog‘ochidan foydalanadilar. Ammo ularning ovoz sifati hali Stradivari darajasiga yetmagan. Stradivari sirli va maxsus lak qoplamasi bilan mashhur. Bu qoplama ovoz sifati va skripkaning uzoq saqlanishiga ta‘sir qilgan. O‘zbek ustalarida lak va qoplama ishlari maxsus yangi texnologiyalar yordamida qilinadi. Lekin hali o‘ziga xos "sirli" texnologiyalar hali rivojlanmagan.

Stradivari o‘z skripkalari tuzilishini (geometriya va maxsus rezosans kameralarini) mukammal darajada ushlab chiqqan. Uning har bir skripkasi nozik muvozanatga ega. O‘zbek ustalari asosan standart texnik chizmalar va chet el namunalarini o‘rganish asosida olib boradilar. Yangi shakllar va ovoz xususiyatlarini uchratish kamroq uchraydi. Va shunga o‘xshash va shu kabi farqlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Hozirgi kunda Navoiy va Buxoro viloyatlarida skripka san‘atiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Garchi bu hududlarda skripka san‘ati hali rivojlanmagan bo‘lsa-da, uning istiqbollari katta. Mahalliy musiqa maktablari va madaniyat markazlari yosh skripkani yosh avlodga targ‘ib qilishga katta e‘tibor qaratmoqda. Navoiy, viloyat musiqa va san‘at maktablarida yosh skripkachilar xalq kuylarini o‘rganib, ularni o‘z talqinlarida ijro etishmoqda. 2023-yilda o‘tqazilgan "Yosh Musiqachilar Tanlovi"da Navoiylik yosh skripkachilar birinchi marta faol ishtirok etib, milliy kuylarni zamonaviy ko‘rinishda talqin qildilar. Navoiydan bir guruh yosh skripkachilar xalqaro tanlovlarda o‘z mahoratlarini namoyish etishmoqda. Jumladan, 2023-yili Navoiylik Dilafruz Abdullayeva Xitoyda bo‘lib o‘tgan xalqaro skripka tanlovida bronza medalini qo‘lga kiritdi.

Buxoroda esa skripka ijrochiligi ko‘proq turistik va madaniy tadbirlarda namoyon bo‘lmoqda. Bu viloyatda maqom musiqasini skripka orqali ijro etish bo‘yicha tajribalar o‘tkazilmoqda. 2024-yil "G‘arb va Sharq Kuylari" Festivali doirasida skripka cholg‘usi maqom musiqadi bilan uyg‘unlashgan holda ijro etildi va bu ko‘pchilikka qiziqish uyg‘otdi. Buxoroda yangi skripka ansambli tashkil etilib, ular milliy kuylarni skripka va boshqa zamonaviy cholg‘ularni uyg‘unlashtirgan holda ijro etishmoqda.

2024-yilda Toshkentdagi O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi Buxoro va Navoiy musiqa maktablari bilan hamkorlikni tashkil etishdi. Ushbu hamkorlik doirasida tajribali pedagog va ijrochilar hududiy maktablarda maxsus darslarni tashkil etishmoqda. Navoiy va Buxoro skripkachilari chet elning rivojlangan musiqa maktablari bilan aloqani kuchaytirish orqali yangi bosqichlarga chiqishi mumkin. Masalan, Yevropa va Janubiy Koreyaning skripka maktablari bilan hamkorlik qilish va xalqaro ustozlarni jalb qilish, talabalarga xorijda o‘qish imkoniyatlarini yaratish bu jarayonni tezlashtiradi. 2024-yilda tashkil etilgan "Sharqiy Musiqa Zamonaviy Skripka" bu borada ilk qadam bo‘ldi.

Navoiy va Buxoroda skripka san‘ati hali boshlang‘ich bosqichda rivojlanayotgan bo‘lsa -da, milliy kuylarni zamonaviy texnikalar bilan uyg‘unlashtirish va yosh iste’dodlarni, qo‘llab -quvvatlash orqali uning kelajagi porloq. Hududdagi yosh musiqachilar va o‘qituvchilar bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, xalqaro tajriba va madaniy aloqalar esa bu hududlarni skripka san‘ati markazlaridan biriga aylantirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Great violinists and pianists - George T. Ferris
2. Stradivari's Genius - Toby Faber
3. "O‘zbekistonning musiqiy asboblari" - Muhammadali Kholmirezayev
4. "Skripka". Wikipedia, erkin ensiklopediya